

Qobilova Ruxsora Xolboyevna

Urganch Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning istiqbollari ustuvor yo'nalishlari va tahlil natijalari hamda yo'nalish vazifalari xususidagi fikrlar ifoda etilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm, Xorazm turizmi, turizm salohiyati, rivojlanish tendensiyalari.*

Annotation: *this article expresses the priorities of the prospects for the development of the tourism sector in the Khorezm region and the results of the analysis and points on the tasks of the direction.*

Keywords: *tourism, Khorezm tourism, tourism potential, development trends.*

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor yildan yilga oshib bormoqda. 2017-yilda bu sohani rivojlantirish bo'yicha alohida mintaq va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqan holda, alohida turizmni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4 maydagi «2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'rida» gi PQ-2953-sonli qarori bunda yaqqol misol bo'ladi. Bunda mintaq turizm salohiyatini oshirish va uni xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi oshirishga alohida e'tibor qaratilgan¹.


Xorazm viloyatida turizm sohasi respublikada eng rivojlangan viloyatlardan biridir. Ushbu viloyatda turizmni rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga

¹ «2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'rida» gi PQ-2953-sonli Qarori. www.lex.uz — Qonunchilik portali materiallari.

ega bo'lib, sohani yanada rivojlantirish uchun etarlicha imkoniyat va salohiyatlarga ega. Viloyatda 255 madaniy meros ob'ektlari davlat ro'yxatiga olingan bo'lib, shundan 18 tasi arxeologiya, 133 tasi arxitektura, 66 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 32 tasi muqaddas qadamjoldir. Ulardan 53 ta madaniy meros ob'ektlari Xiva «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo'riqxonasi hududida joylashgan.

Qolgan ob'ektlar viloyatning turli tumanlarida joylashgan. Bu esa viloyatda turizmni rivojlantirish potentsiali, uning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda viloyatda joylashgan ayrim turistik ob'ektlar ta'mirtalab ahvolga kelib qolgan. Ba'zi ob'ektlar turistik yo'nalishlar dasturiga kiritilmagan. Ta'mirtalab ahvoldagi ob'ektlarni ta'mirdan chiqarib, turistik yo'nalishlar dasturiga kiritilsa viloyatga turistlar oqimni ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi.


Bu bilan qo'shimcha valyuta tushimiga erishiladi, mahalliy aholi vakillarining ish bilan ta'minlanish imkoniyati yuzaga keladi. Hozirgi kunda viloyatni tarixiy-madaniy merosi asosan BMT ning YUNESCO moddiy meroslarni asrash ro'yhatiga kiritilgan bo'lib, Xiva shahrining asosiy obyektlari ulardan joy olgan.



2.1.1-rasm. 2012–2016 yillar davomida Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar soni²

«Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xududning sayyohlik yo‘nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish, sayyohlik imkoniyatini namoyish qilish ishlarini amalga oshirish, sayyohlar uchun qo‘shimcha ob’ektlar infratuzilmasini yaxshilash, turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish» bo‘yicha dastur doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Mintaqada turizm industriyasining raqobatbardoshligini bevosita baholash uchun biz Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar tashrifi statistikasiga bevosita to‘xtalib o‘tamiz. Bu 2017 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra jami xorijiy sayyohlar soni 46 600 kishini tashkil qiladi. Bu ko‘rsatgich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 15 foizda ortganligi kuzatiladi.



2.1.2-rasm. Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar soni³

Shu jumladan, MDH mamlakatlaridan 2015 yil davomida 5767 nafar sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2016 yilda bu ko‘rsatgich 6598 nafar kishini tashkil qilib, 15 foizga oshgan. Birgina, 2015 yilning o‘zida dunyoning 80 dan

² Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Toshkent 2016.

³ Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Toshkent 2016.

ortiq davlatidan 40,6 mingga yaqin xorijiy sayyohlar viloyatimizga tashrif buyurishgan bo'lishsa, 2016 yil yakuni bilan, bu ko'rsatkich 46,6 mingdan ortiqni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 % ga oshgan. 2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turistik salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Unda chora-tadbirlar quyidagi guruxlarga bo'lingan holda amalga oshiriladi⁴:

- ✓ Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm infratuzilmasini rivojlantirish;
- ✓ Turizm yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish;
- ✓ Xududning turizm salohiyatini targ'ib qilish;
- ✓ Turistlar uchun yondash infratuzilma obyektlari xolatini yashilash;
- ✓ Turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga asosan Xorazm viloyatida yangi ish o'rinlarini yaratishda turizm asosiy drayver sohasi bo'lishi, hududda kelgusi besh yilda turizm xizmatlarini kamida besh baravarga oshirish va shu maqsadda turizm obyektlarining infratuzilmasini tubdan yaxshilash, yangi oilaviy mehmon uylari, “turizm ko'chalari”ni tashkil etish hamda ichki va chet ellik sayyohlarni viloyatning boy moddiy va nomoddiy madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirish choralarini ko'rish maqsadida: Xorazm viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni jadal rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash, kelgusi besh yilda viloyatda turizm xizmatlarining hajmini keskin oshirish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil etishda turizmni yetakchi sohaga aylantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi “2022 — 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm

⁴ Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmasi statistika ma'lumotlari Urganch, 2017 yil.

salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 28.09.2022-yildagi 546-son qarorini tasdiqladi. Ushbu qarorga ko‘ra:

Sayyohlik maskanlarining infratuzilmasini rivojlantirish yuzasidan ularni yo‘llar, ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi bilan ta‘minlash, viloyatda yangi turistik yo‘nalishlar va mahsulotlarni joriy qilish, sohadagi ilg‘or xorijiy tajribani tatbiq etish, turizmni rivojlantirish uchun hududdagi istiqbolli mahallalarni belgilash, Urganch va Xiva shaharlarini yetakchi sayyohlik nuqtalari sifatida rivojlantirish hamda qator madaniy-ma‘rifiy va ko‘ngilochar tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi quyidagilar:

➤ 2022 — 2026-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (1-ilovaga muvofiq);

➤ 2022 — 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi (1-ilovaga muvofiq)

➤ Urganch shahridagi Pahlavon Mahmud ko‘chasi va Xiva shahridagi “Alleya” maydoni hududlarida “turizm ko‘chalari”ni tashkil etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (2-ilovaga muvofiq);

➤ Xorazm viloyatida 2022 — 2026-yillarda turizm sohasida amalga oshiriladigan istiqbolli investitsiya loyihalarining manzilli dasturi (3-ilovaga muvofiq);

➤ Xorazm viloyatida turizm salohiyati yuqori bo‘lgan va turizm drayveri sifatida rivojlantirish rejalashtirilgan “turizm mahallalari” ro‘yxati (4- ilovaga muvofiq) tasdiqlandi.

➤ Turizm va madaniy meros vazirligi Xorazm viloyati hokimligi bilan birgalikda Xiva shahri hamda Bog‘ot, Xiva, Shovot va Yangiariq tumanlarida tanlab olingan, turizm salohiyati yuqori bo‘lgan 13 ta mahallani turizm drayveri sifatida rivojlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishi belgilangandi.

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2024- y.	2025- y.	2026- y.
------------	----------------------------	-----------------	-----------------	-----------------	-----------------	-----------------	-----------------

1.	Ichki turistlar tashrifi soni (ming kishi)	520	655	790	930	1 060	1 200
2.	Xorijiy turistlar soni (ming kishi)	240	400	560	720	880	1 040
3.	Xizmatlar eksporti (mln AQSh doll)	80	150	220	290	360	430
4.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	2,4	2,6	3,2	3,8	4,2	5,0
5.	Mehmonxonalaridagi o‘rinlar fondining bandlik darajasi	40,0	44,0	50,0	60,0	70,0	80,0
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni (ming)	5,0	5,6	6,1	6,7	7,5	8,0
7.	Mehmonxonalar soni (dona)	79	89	100	105	110	115
8.	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	85	114	135	155	185	215
9.	Xostellar soni (dona)	11	13	15	18	20	22

2.1.3-jadval. 2022 — 2026-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari⁵

Turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda mamlakatga 5,3 million chet ellik sayyoh tashrif buyurgan, bu o‘tgan yilga nisbatan 24 foizga ko‘pdir. 2025-yilga kelib O‘zbekiston hukumati sayyohlar oqimini yiliga 9 million kishiga yetkazishni rejalashtirmoqda.

⁵ Vazirlar Mahkamasi “2022 — 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 28.09.2022-yildagi 546-son qarori.

1. «2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to’g’rida» gi PQ-2953-sonli Qarori. www.lex.uz — Qonunchilik portali materiallari.
2. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Toshkent 2016.
3. Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi Xorazm viloyati boshqarmasi statistika ma’lumotlari Urganch, 2017 yil.
4. Vazirlar Mahkamasi “2022 — 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 28.09.2022-yildagi 546-son qarori.